# INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG’ICH SINF O‘QITUVCHILARINING XALQARO BAHOLASH DASTURLARIGA METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

**Muslimov Narzulla Alixanovich**
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOGIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI DIREKTORI, p.f.d., professor

**Annotatsiya:** ushbu maqolada innovatsion texnologiyalar asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining xalqaro baholash dasturlariga metodik tayyorgaligini takomillashtirish masalasi yoritilgan. Shuningdek, metodist olimlarning ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari tahlil qilingan va subyektiv munosabat bildirilgan

**Kalit so‘zlar:** innovatsiya, yangilik kiritish, innovatsion texnologiya, xalqaro baholash dasturlari, PISA, PIRLS, TIMSS, kasbiy shakllanish, internet, matnni o‘qib uni tushunish, mulohaza yuritish, mantiqiy xulosa chiqarish.

**Abstract:** this article covers the issue of improving the methodological readiness of future primary school teachers for international assessment programs based on innovative technologies. Also, the research carried out by Methodist scientists on the introduction of innovative technologies into the educational process, the preparation of elementary students for international assessment programs was analyzed and subjective reaction was expressed

**Key words:** innovation, novelty, innovative technology, international assessment programs, PISA, PIRLS, TIMSS, professional training, internet, read and understand the text, reason, draw logical conclusions.

Mamlakatimizda ta’lim samaradorligini yuqori darajada rivojlantirish, o‘quvchilarning bilim saviyasi, dunyoqarashining kengligi, mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari, shuningdek, matnni o‘qish va tushunish darajalari, maktab va oilada ta’lim olish uchun yaratilgan muhitning ijobiy yoki salbiy ekanligini aniqlash maqsadida PISA, PIRLS, TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etmoqda. Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi(IEA) tomonidan o‘tkazilib kelinayotgan ushbu xalqaro baholash dasturlari davlatimizning ushbu dasturlarda qatnashuvchi davlatlar orasidagi o‘rnini belgilab beradi.

Xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishga doir vazifalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarorida belgilab berilgan.

“PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study – xalqaro o‘qish savodxonligini o‘rganishdagi yuksalish) – bu turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinfda tahsil oluvchi o‘quvchi yoshlarning matnni o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Ushbu sinov turi har 5 yilda bir marta o‘tkazishga mo‘ljallangan”. Bu kabi xalqaro baholash dasturini amalga oshirish pedagoglar va o‘quvchilarning bilim va fikrlash darajasini

oshiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ushbu xalqaro tadqiqotga samarali tayyorlashda ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim vazifa hisoblanadi.

Ingliz tilidan tarjima qilinganda “Innovatsiya” bu “yangilik kiritish” degan ma’noni bildiradi. O‘zbekicton Milliy ensiklopediyasida innovatsiya so‘ziga quyidagicha ta’rif berilgan: “Innovatsiya (ingl. “innovationas” – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta’minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanishi”.

E.Rodjersning tadqiqotlariga e’tibor qilsak, “innovatsiya - bu ijtimoiy-psixologik jarayonda ishtirok etuvchi subyektlarning toifalari va o‘zaro munosabatlarning jihatlari, ishtirokchilarni yangilikka bo‘lgan qarashlari, yanglikni anglash va qabul qilish, mazmun va mohiyatini tushunish va boshqalar”.

A.S.Djurayevning fikricha, “ta’lim tizimida innovatsiyalarni joriy etish nazariy va amaliy tavsifga ega bo‘lib, ma’lum tavakkalchilikka yo‘l qo‘yiladigan murakkab jarayondir. Innovatsion ta’limni rivojlantirish yo‘liga o‘tish oliy ta’lim muassasalari uchun muhim ahamiyatga ega, eng asosiy omil faqat texnik g‘oyalarni ishlab chiqish emas, balki jahon mehnat bozori talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash bilan asoslanadi. Bugungi kunda ta’limning yuqori sifatini kasbiy mahoratga ega, o‘z-o‘zini rivojlantira oladigan, ta’limning ochiq ijtimoiy buyurtmalari doimiy o‘zgarib turadigan sharoitda o‘zgarishlarga tez moslasha oladigan, o‘zining kasbiy ishini yaxshi tushunadigan, doimiy qayta tayyorlash va yangilanishga doim tayyor bo‘lishlari talab etiladi”. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining PIRLS xalqaro baholash dasturiga metodik tayyorgarligini takomillashtirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha kognitivligini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

M.Asqarovaning fikricha, “PIRLS testlari nazariy doirasi jihatdan to‘rt xil asosiy o‘qish ko‘nikmalarini aniqlash imkonini beradi: matnda ochiq-oydin ifodalangan axborotni topish; uning asosida oddiy aqliy xulosalar chiqarish; matndagi g‘oya va axborotlarni sharhlash, integratsiyalash; matn shakl va mazmunini baholash”.

I.S.Horn, B.D.Kane, J.Wilsonlar “xalqaro tadqiqotda qatnashuvchilarga ma’lumotlarni taqdim qilishda yuzaki ma’lumotlarni bilimga aylantiradigan keng qamrovli talqin qilish bilan birlashtirish amaliyotchilar tomonidan foydali va tushunarli bo‘lishi mumkin”ligi haqida fikr bildirganlar. Tabiiyki, kichik hajmdagi sodda ma’lumotlar ko‘payishi natijasida katta hajmdagi ma’lumotlar yig‘indisi paydo bo‘ladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari mazkur xalqaro dastur talablari yuqori saviyadagi maqsadlarni ko‘zlaganligini inobatga olgan holda dars jarayonlariga innovatsion ta’lim texnologiyalarini tatbiq etishlari lozim.

Xorijlik olimlar ushbu sohada ilmiy izlanishlar olib borar ekan, “PIRLS xalqaro tadqiqoti shaxsni hamda jamiyatni o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishida, yozma matnlar va boshqa turdagi ma’lumotlar ustida mulohaza yuritishni maqsad qilganligini ta’kidlagan holda, bunday yondashuv bugungi jamiyatda yanada yaqqol sezilib, jamiyat o‘quvchidan o‘qish orqali olgan ma’lumotlardan foydalana olish qobiliyatiga ega bo‘lishni talab etmoqda”,- deya munosabat bildirganlar. Bizningcha, yozma savodxonlik va og‘zaki nutqning mazmundorligini ta’minlash, mantiqiy va tanqidiy fikrlash, berilgan matn bo‘yicha mustaqil fikr bayon qilish mujassamlashadi. O‘qish negizida o‘quvchida shaxsiy qobiliyat, nutq madaniyati elementlari va insoniy fazilatlar rivoj topadi.

“Hozirgi paytda matnlar yoki ma’lumotlarni internet orqali o‘qish maktabdagi dasturning asosiy qismi va ma’lumotlarni qo‘lga kiritishning eng muhim usuli hisoblanadi”. Bugungi kun yoshlari matnlarni va ma’lumotlarni internet saytlaridan qidiradilar va bu vaqtni tejashga yordam beradi. “Yangi raqamli savodxonlik ma’lumotlarni internet orqali o‘qish uchun muhim sanalib, unda o‘quvchi o‘ziga kerakli ma’lumotni qidirib topib, uni tushunish orqali o‘qishdan ko‘zlangan maqsadga erishadi”. Savodxonlik ma’lumotlarini o‘quvchilar internetdan qidirib topadi, ma’lumotni o‘qish orqali tushunib yetadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bugungi

internet asrida o‘quvchilarda internetdan to‘g‘ri va samarali foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishi zarur.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini innovatsion texnolgoiyalar asosida xalqaro baholash dasturlariga metodik tayyorgarligini takomillashtirish ularning kasbiy shakllanishiga asos bo‘ladi. Kasbiy shakllanish – shaxs kamolotining muhim jihatlaridan biri bo‘lib, shaxsning faqatgina mehnat va kasbiy faoliyatini tanlash bilan bog‘liq ehtiyoj va qiziqishlarini ifodalaydi (umumiy rivojlanish barcha ehtiyojlar majmuasini, uning borliqqa, atrofdagilarga o‘ziga nisbatan munosabatlari tizimini ifoda etadi).

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. PF-5712-sonli. 2019-yil 29-aprel. https://lex.uz.

2. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori. 2018-yil 8-dekabr. https: //lex.uz.

3. Aflerbach P. & Cho B.Y. (2009) Identifiting and describing constructively responsive comprexension strategiyes in new and traditional forms of reading. In S.E Israel & G.G.Dufy. Handbook of research on reading comprexension (pp. 69-90) http://www.orca.uconn.edu/orca/assets/File/Research%20Reports/PROJECT%20REPORT%20%231.pdf.

4. Asqarova M.A. Boshlang‘ich ta’limda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik asoslari // ilmiy maqola. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2023 йил № 8). – 2 b.

5. Djurayev A.S. Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning kasbiy malakasini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish: Ped. fan. bo‘y. fal. dokt. (PhD) diss. – Samarqand: 2019. – 53 b.

6. Horn I.S., Kane B.D., & Wilson J. (2015). Making sense of student performance data: Data use logics and mathematics teachers learning opportunities. American Educational Research Journal, 52(2), 208-242.

7. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Zebuniso-Konigil / 4-tom. Bosh tahrir hay’ati a’zolari: M.Aminov va boshq. – T.: “O‘zbekicton milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.

8. Leu D.J., O‘Byrne W.I. Zawilinski L., McVerry J.G. Everett-Cacopardo H. (2009). Comments on Grenhow, Robelia, and Huges: Expandinc the new literasies conversation Educational Researcher, 38, 264-269

9. Omanova M.A. PIRLS xalqaro dasturi asosida 4-sinf o‘quvchilarida matnni o‘qish va tushunish malakasini rivojlantirish. Maqola. PIRLS xalqaro baholash dasturi: nazariya va tatbiq etish istiqbollari. Xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari. *Toshkent, 13 mart 2020 yil*

10. Роджерс К. Взгляд на психотерапию. Становление человека. – М.: НТ Прогресс, 1994. – 480 с.

11. Читательское развития личности: теоретико методологические аспекти: автореферат дис. д-ра пед. наук: 05.25.03 / Бородина В.А.. - СПб., 2007. - 43 с.